O'ZBEKISTONDA XIZMATLAR SOHASINING HUDUDIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Mattiev Nasimjon Baxtiyorovich
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi Buxoro viloyati hududiy filiali bosh mutaxassisi
elektron pochta: mattievnasim@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23074041

Annotatsiya

Maqolada 2026-yil yanvar–iyun oylarida O'zbekistonda ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarmoqlar va hududlar kesimidagi rivojlanish xususiyatlari tahlil qilingan. Tarkibiy o'zgarishlar, o'sishga qo'shilgan hissa va hududlar o'rtasidagi tafovutlar Milliy statistika qo'mitasining dastlabki ma'lumotlari asosida o'rganildi. Tadqiqot oxirida xizmatlar sohasini muvozanatli rivojlantirishga oid takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: xizmatlar sohasi, bozor xizmatlari, hududiy rivojlanish, tarkibiy o'zgarish, o'sish sur'ati, aholi jon boshiga xizmatlar.

Аннотация

В статье проанализированы отраслевые и территориальные особенности развития рыночных услуг в Узбекистане в январе–июне 2026 года. На основе предварительных данных Национального комитета по статистике изучены структурные сдвиги, вклад видов услуг в общий рост и региональные диспропорции. В заключение сформулированы предложения по обеспечению более сбалансированного развития сферы услуг.

Ключевые слова: сфера услуг, рыночные услуги, региональное развитие, структурные сдвиги, темпы роста, услуги на душу населения.

Abstract

The article examines sectoral and regional patterns in the development of market services in Uzbekistan in January–June 2026. Using preliminary data of the National Statistics Committee, it analyses structural changes, the contribution of service types to overall growth, and territorial disparities. The paper concludes with proposals for more balanced development of the services sector.

Keywords: services sector, market services, regional development, structural change, growth rate, per capita services.

1.KIRISH

So‘nggi yillarda xizmatlar sohasi O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi [1] hamda “O‘zbekiston–2030” strategiyasi [2] iqtisodiy o‘sishni barqarorlashtirish, aholi daromadlarini oshirish va hududlarni muvozanatli rivojlantirishni ustuvor vazifalar qatoriga kiritadi. Yangi O‘zbekiston strategiyasida ham ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va hududlarning mavjud salohiyatidan to‘liq foydalanish masalalariga e’tibor qaratilgan [3].

Xizmatlar sohasiga bevosita taalluqli hujjatlardan biri — Prezidentning 2025-yil 27-fevraldagi PQ-78-son “Xizmatlar sohasini barqaror rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroridir. Milliy statistika qo‘mitasi ushbu qarorga muvofiq

xizmatlarning asosiy turlari bo‘yicha belgilangan maqsadli parametrlar doirasida monitoring olib borishini ma’lum qilgan [4; 58-b.]. Shu sababli xizmatlar sohasining tarmoqlar va hududlar kesimidagi holatini muntazam baholash davlat siyosati uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dolzarbligi 2026-yil yanvar–iyun oylarida bozor xizmatlari hajmining 664 914,4 mlrd so‘mga yetgani va real hisobda 16,9 foizga oshgani bilan ham bog‘liq [4; 53-b.]. Ushbu o‘sish qaysi xizmat turlari hisobiga yuzaga kelgani va hududlar bo‘yicha qanday taqsimlangani alohida tahlilni talab etadi.

2. ADABIYOTLAR SHARHI

Xizmatlar sohasining hududiy rivojlanishi xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan turli yo‘nalishlarda o‘rganilgan. I. Begg xizmatlar sektorining mintaqaviy rivojlanishdagi o‘rnini tahlil qilib, xizmatlar faoliyati bilan hududiy iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlikni asoslagan [5]. S. Buriyev O‘zbekistonda hududlarda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish modellarini tadqiq etib, ularning hududning iqtisodiy ixtisoslashuvi, aholisi va infratuzilmasiga bog‘liqligini ko‘rsatgan [6]. G. Ernazarov esa O‘zbekistonda xizmatlar sohasining asosiy ko‘rsatkichlarini statistik jihatdan tahlil qilib, rivojlanish tendensiyalarini baholagan [7]. Ushbu ishlar xizmatlar sohasini hududiy jihatdan baholashda xizmatlar hajmi bilan bir qatorda hududiy ixtisoslashuv, aholi va infratuzilma omillarini ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

3. TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning empirik bazasini Milliy statistika qo‘mitasining “O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati” axborotnomasining 2026-yil yanvar–iyun oylariga oid Xizmatlar bo‘limi tashkil etadi [4].

4. TAHLIL VA NATIJALAR

Xizmatlar sohasining rivojlanishini baholashda faqat umumiy hajmning o‘zgarishini ko‘rib chiqish yetarli emas. O‘sishning qaysi xizmat turlari hisobiga yuzaga kelgani, ularning umumiy tarkibdagi o‘rni va rivojlanish sur’atlari o‘rtasidagi farqlarni birgalikda tahlil qilish xizmatlar bozoridagi tarkibiy jarayonlarni aniqroq ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, quyida 2026-yil yanvar–iyun oylaridagi bozor xizmatlari hajmi 2025-yilning mos davri bilan taqqoslandi, asosiy xizmat turlarining o‘sish sur’atlari va umumiy hajmdagi o‘rni baholandi. Shuningdek, olingan natijalar xizmatlar sohasidagi hududiy tafovutlar va rivojlanishning muvozanat darajasi bilan bog‘liq jihatlar orqali izohlandi.

1-jadval. Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari, yanvar–iyun, mlrd so'm


Xizmat turi	2025-y.	2026-y.	O'sish sur'ati, %
Xizmatlar – jami	539 045,2	664 914,4	116,9
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	40 339,4	51 942,3	122,1
Moliyaviy xizmatlar	77 833,1	104 232,5	126,3
Transport xizmatlari	88 303,7	103 936,6	114,7
— shu jumladan: avtotransport xizmatlari	42 955,0	54 589,5	117,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	95 266,2	115 153,8	111,6
Savdo xizmatlari	140 828,0	169 953,7	114,9
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	13 442,6	16 222,2	118,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	18 805,9	23 772,6	122,7
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	9 051,8	11 256,0	116,8
Ijara xizmatlari	6 590,1	7 554,7	107,4
Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash	6 650,8	7 791,7	111,4
Shaxsiy xizmatlar	9 582,0	11 917,3	114,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil	6 541,4	8 935,2	124,6
Boshqa xizmatlar	25 810,2	32 245,8	116,3

Manba: [4; 58-b.]

Jadval ma’lumotlari 2026-yil yanvar–iyun oylarida xizmatlarning barcha asosiy turlari bo‘yicha hajm 2025-yilning mos davriga nisbatan oshganini ko‘rsatadi. 2026-yil yanvar–iyun oylarida bozor xizmatlari hajmi 664 914,4 mlrd so‘mni tashkil etgan bo’lsa, 2025-yilning shu davridagi 539 045,2 mlrd so‘mga nisbatan real hisobda 116,9 foizni tashkil qildi [4; 58-b.]. Joriy narxlarda hajmning taxminan 23,4 foizga oshgani (muallif hisobi) nominal o‘sish bilan real o‘sish o‘rtasidagi farqni ko‘rsatadi. O‘sish sur’ati, ayniqsa, moliyaviy xizmatlarda (126,3 foiz), me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil xizmatlarida (124,6 foiz) hamda ta’lim xizmatlarida (122,7 foiz) yuqori bo‘lgan. Hajm jihatidan esa savdo (169 953,7 mlrd so‘m), yashash va ovqatlanish (115 153,8 mlrd so‘m), moliyaviy (104 232,5 mlrd so‘m) hamda transport xizmatlari (103 936,6 mlrd so‘m) ajralib turadi. Ijara xizmatlarida o‘sish sur’ati eng past — 107,4 foiz bo‘lsa-da, bu yo‘nalishda ham ijobiy dinamika saqlangan. Demak, umumiy o‘sish bilan bir qatorda, ayrim xizmat turlarida nisbatan tezroq kengayish kuzatilmoqda.

Xizmatlar tarkibidagi nisbatlarni yanada aniqroq ko‘rish uchun 2026-yil yanvar–iyun oylarida asosiy xizmat turlari bo‘yicha bozor xizmatlari hajmi 1-rasmda keltirilgan.

1-rasm. Asosiy turlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, 2026-yil yanvar–iyun, mlrd so'm



Manba: [4; 59-b.] ma'lumotlari

1-rasm ma’lumotlari bozor xizmatlari tarkibida eng katta hajm savdo xizmatlariga to‘g‘ri kelganini ko‘rsatadi. Undan keyin yashash va ovqatlanish, moliyaviy hamda transport xizmatlari turadi. Mazkur tarkib aholining kundalik iste’mol ehtiyoji, moliyaviy operatsiyalar va iqtisodiy faoliyatning transport xizmatlariga bo‘lgan talabini aks ettiradi. Ijara, me’morchilik va muhandislik, shuningdek, kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash xizmatlarining hajmi esa nisbatan kichik bo‘lgan.

Umumiy o‘sishga qaramay, xizmatlarning hududlar va turlar bo‘yicha rivojlanish darajasi bir xil emas. Tarkibda savdo, moliyaviy, transport hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari katta ulushni egallaydi, raqamli, ta’lim, tibbiy va professional xizmatlarning rivojlanish darajasi esa nisbatan past. Ayrim hududlarda aholi jon boshiga xizmatlar hajmining pastligi hududiy nomutanosiblik saqlanayotganini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, 2025-yildan boshlab statistik baza va savdo xizmatlarini hisoblash metodologiyasida yuz bergan o‘zgarishlar hududlar bo‘yicha uzoq muddatli dinamikani taqqoslashni murakkablashtirmoqda. Shu bois hududlar kesimida xizmatlar sohasining maqsadli parametrlarini aniq belgilash, ko‘rsatkichlari past hududlarda zamonaviy xizmat turlarini rivojlantirish hamda metodologik o‘zgarishlarni hisobga olgan holda uzoq muddatli, taqqoslanadigan statistik qatorlarni shakllantirish muhim.

5. XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalari xizmatlar sohasida bir nechta muhim tendensiyani ko‘rsatadi. Birinchidan, 2026-yil yanvar–iyun oylarida soha real hisobda 16,9 foizga o‘sdi va umumiy o‘sishda savdo, moliya, transport, yashash va ovqatlanish hamda aloqa xizmatlarining hissasi katta bo‘ldi. Ikkinchidan, xizmatlar tarkibida moliyaviy va axborot-kommunikatsiya xizmatlari ulushining oshishi kuzatilmoqda; moliya, me’morchilik-muhandislik, ta’lim va aloqa xizmatlarida o‘sish sur’atlari yuqori bo‘lgan. Uchinchidan, hududiy jamlanish darajasi yuqoriligicha qolmoqda: Toshkent shahri umumiy hajmning 41,3 foizini beradi, aholi jon boshiga ko‘rsatkichlarda esa viloyatlar o‘rtasida sezilarli tafovut mavjud.

Xizmatlar sohasini hududlar kesimida rivojlantirish uchun, avvalo, PQ-78-son qarorida belgilangan vazifalar doirasida hududlar bo‘yicha maqsadli parametrlarni aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan ko‘rsatkichlar va xizmatlar tarkibi kesimida alohida belgilash maqsadga muvofiq. Bu hududlarning iqtisodiy salohiyati, aholisi va ehtiyojlarini hisobga olgan holda rivojlanish ko‘rsatkichlarini aniqroq baholashga yordam beradi.

Xizmatlar sohasi rivojlanish ko‘rsatkichlari nisbatan past bo‘lgan Surxondaryo, Qashqadaryo, Namangan va Jizzax viloyatlarida kichik biznes subyektlari ko‘rsatadigan xizmatlar ko‘lamini kengaytirishga e’tibor qaratish lozim. Ayniqsa, raqamli, ta’lim va tibbiy xizmatlarni rivojlantirish hamda shu yo‘nalishlarda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy va institutsional jihatdan qo‘llab-quvvatlash muhim.

Hududiy statistik ma’lumotlarning taqqoslanishini ta’minlash uchun 2025-yildan boshlab qo‘llanilayotgan yangi bazaviy davr va savdo statistikasi metodologiyasidagi o‘zgarishlarni hisobga olgan holda uzoq muddatli hududiy statistik qatorlarni shakllantirish ham zarur. Bu hududlar bo‘yicha xizmatlar sohasi rivojlanish dinamikasini aniqroq baholash, tarkibiy o‘zgarishlarni ajratib ko‘rsatish va kelgusidagi maqsadli ko‘rsatkichlarni asoslash imkonini beradi.

Taklif etilayotgan chora-tadbirlar hududlarda xizmatlar sohasining barqaror va muvozanatli rivojlanishiga, xizmatlar tarkibining diversifikatsiyasiga hamda aholining zamonaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi kutiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". — https://lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni "O'zbekiston–2030" strategiyasi to'g'risida". — https://lex.uz
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2021.
4. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Axborotnoma "O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati": VII. O'zbekistonda bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari, 2026-yil yanvar–iyun. — Toshkent, 53–63-betlar.
5. Begg I. The Service Sector in Regional Development. Regional Studies, 1993, Vol. 27, No. 8, pp. 817–825. DOI: 10.1080/00343409312331348005.
6. Buriyev S.A. Hududlarda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish modellari va mezonlari. Innovatsion iqtisodiyot, 2026, 4(4), 248–251. DOI: 10.70769/3030-315X.II.4.4.2026.47.
7. Ernazarov G. O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining asosiy ko‘rsatkichlari, uning statistik tahlili va uni takomillashtirish yo‘llari. Ilg‘or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, 2025, №4.